
AHOLI BANDLIGI TA'MINLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 maydagi 252-sonli qaroriga ko'ra tumandagi ishsiz, kam ta'minlangan oilalar a'zolari, tashqi mehnat migrasiyasidan qaytib kelgan shaxslarga subsidiya asosida asbob-uskunalar tarqatildi.

Hokim yordamchilari tavsiyasi bilan 10 nafar fuqarolarga mehnat qurollari hamda zamonaviy tikuv mashinalari subsidiya asosida berildi.

Subsidiya asosida motokultivator, payvandlash apparati, zamonaviy tikuv mashinalarini tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda sektor rahbarlari topshirdilar.

2023-04-25 18:40:46